

## Yadro fizikasi instituti ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi

Bugun, 9-fevral kuni O'zbekiston Milliy matbuot markazida Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti faoliyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi. Unda Yadro fizikasi instituti rahbarlari, yetakchi olimlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.





O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti nafaqat respublikamizda, balki Markaziy Osiyo hududidagi eng yirik ilmiy tekshirish muassasasi hisoblanadi. Institutda yadro fizikasi, qattiq jismlar radiatsion fizikasi, materialshunoslik, aktivatsion tahlil, radiokimyo, ilmiy asbobsozlik, axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boriladi.

2019-yil 21-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4526-son qarori qabul qilindi. O'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida ushbu qarorda belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Institutni 2020 — 2024 yillarda rivojlanish kontsepsiyasi ishlab chiqildi;
- 2020-yil yanvar oyidan boshlab Institut xodimlarining mehnatiga haq to'lash, bino va inshootlarini saqlash xarajatlari, shuningdek, joriy xo'jalik sarf-xarajatlarining qoplanishi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilmoqda, ya'ni Institut bazaviy moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi;
- Institutning 2030-yilgacha ilmiy izlanish faoliyatini rivojlantirish kontsepsiyasi ishlab chiqildi;
- Institut ilmiy ishlanmalarining doimiy yangilanib turadigan ma'lumotlar elektron bazasi yaratildi;
- Yoshlarni Institut ilmiy faoliyatini izga qo'yish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash maqsadida Institutda O'zbekiston Milliy universitetining yadro fizikasi kafedrasini filiali tashkil etildi.

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida ishlar davom etmoqda.

Anjumanda ushbu qaror ilmiy faoliyatni, fundamental va amaliy tadqiqotlarni, innovatsion ishlanmalarni yanada rivojlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining moddiy-texnik, analitik bazasini va kadrlar salohiyatini, shuningdek, yadroviy

fanlar, yadro fizikasi va radiatsion texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan hamda uzoq muddatli istiqbolda O'zbekistonda yadro fanlari va texnologiyalarining barqaror samarali rivojlanishini ta'minlash uchun yangi qo'shimcha imkoniyatlarni yaratishi ta'kidlandi.